

O'ZBEK ADABIY TILI VA O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI MASALALARI INOMJON RASULOV TALQINIDA

Mahmudova Dilafruz Salijanovna
Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *O'zbek adabiy tilining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va tarixiy asoslarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda professor Inomjon Rasulovning xizmatlari alohida e'tiborga loyiqdir.*

Kalit so'zlar: *adabiy til, ijtimoiy hayot, sheva, lahja, adabiy til, lingvistik omillar, tilshunoslik tarixi.*

Abstract. *Studies aimed at identifying the formation, stages of development and historical foundations of the Uzbek literary language occupy an important place in the development of Uzbek linguistics. The services of Professor Inomjon Rasulov in this direction deserve special attention.*

Keywords: *literary language, social life, dialect, dialect, literary language, linguistic factors, history of linguistics.*

Аннотация. *Исследования, направленные на выявление формирования, этапов развития и исторических основ узбекского литературного языка, занимают важное место в развитии узбекской лингвистики. Особого внимания заслуживают заслуги профессора Иномжона Расулова в этом направлении.*

Ключевые слова: *литературный язык, общественная жизнь, диалект, литературный язык, лингвистические факторы, история лингвистики.*

Inomjon Rasulov o'zining “O'zbek adabiy tili tarixi”¹³ asarida adabiy tilni jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan, normativ va funksional tizim sifatida tahlil qilgan holda, uning rivojiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, siyosiy va madaniy omillarni chuqur tahlil etadi. Asar o'zbek tilshunosligi sohasida muhim ilmiy manba bo'lib, unda milliy adabiy tilning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy holati keng qamrovli tahlil qilinadi. Asarda o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllarining o'zaro munosabati, ularning strukturaviy xususiyatlari va funksional farqlari aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan.

Tilshunos adabiy tilga quyidagicha ta'rif beradi: “Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan va ma'lum normaga solingan formasidir. Demak, o'zbek adabiy tili va jargonlaridan tamoman farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiyliги bilan xarakterlanadi”.¹⁴ Bu ta'rifdan anglashiladiki, adabiy til ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga singgan va doimiy muomala ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, tilshunosning qarashlaridan o'zbek adabiy tilini milliy til bilan aralashtirib yubormaslik

¹³ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм: Педагогика институтларининг филология факультети талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

¹⁴ Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. Жилд 2. – Б. 98

lozimligi tushuniladi. U adabiy tilni milliy tilning nisbatan normativlashgan, ijtimoiy jihatdan kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan shakli sifatida izohlaydi. Ya’ni, milliy til doirasiga adabiy til bilan bir qatorda lahjalar, shevalar, kasb-hunarga oid atamalar, og‘zaki xalq nutqi va muloqot shakllari ham kiradi.

Olim tilshunoslikdagi murakkab masalalardan biri lahja va adabiy til munosabatini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. U adabiy tilni lahjalar bilan qarama-qarshi qo‘ymasdan, balki ular orasida o‘zaro ta’sir, o‘zlashuv jarayonlarini tahlil qiladi. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining tarixiy shakllanishida qaysi lahjaning ustuvorligi haqida bahs yuritilgan o‘rinda, jadid adabiyoti shakllanayotgan davrda qipchoq va o‘g‘uz unsurlarining kirib kelishi tilning ko‘p shaklli manzarasini yaratganini ilmiy asosda isbotlaydi.¹⁵ Bu ustuvorlik adabiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda tilning nafaqat ichki lingvistik xususiyatlari, balki uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-tarixiy omillarni ham hisobga olish zarur. Inomjon Rasulov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek adabiy tili rivojiga kompleks yondashuvni asoslab bergan olimlardan biridir. U o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida ekstralingvistik va lingvistik omillar o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritganini ta’kidlaydi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da ham nolisoniy omillarga shunday ta’rif beriladi: “NOLISONIY OMILLAR. Til taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv voqelikka doir (til qonuniyatlaridan tashqari) shart-sharoitlar. Bunday shart-sharoitlarga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy omillar kiradi.”¹⁶ I.Rasulov ilmiy faoliyatida bu omillarni chuqur tahlil qiladi. Ushbu omillardan birinchisi siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, xususan, O‘zbekistonning davlat mustaqilligi, siyosiy mafkura kabilar adabiy til rivojiga ta’sir qilgani qayd etiladi. Azim Hojiyevning Ikkinchidan esa matbuot, ommaviy axborot vositalari, ta’lim tizimi va davlat hujjatlari adabiy tilni rasmiylashtirishda va me’yorlashtirishda katta ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi. Uchinchidan, adabiyot va madaniyatdagi uyg‘onish davrlari, jumladan jadidchilik harakati til taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.¹⁷ Bu omillar natijasida o‘zbek adabiy tili rasmiy, madaniy, ilmiy va maishiy qo‘llanilish doirasini kengaytirgan. Ayniqsa, XX asrda boshlangan milliy uyg‘onish harakati, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach amalga oshirilgan til siyosati, davlat tili maqomini olishi ekstralingvistik ta’sirlarning yorqin misollaridir.

I.Rasulov adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllarining o‘ziga xos qonuniyatlari, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Xususan, og‘zaki tilning qadimiylik, xalq ijodi taraqqiyotidagi o‘rni yoritib, yozma tilning madaniy, ilmiy va ma’rifiy taraqqiyotdagi ahamiyatini aniq ko‘rsatadi. Shuningdek, XX asr boshlarida o‘zbek tilining yozma shaklini xalq tiliga yaqinlashtirish va ommalashtirish jarayonlari alohida e’tibor qaratadi. Asarda adabiy tilning asosiy ikki shakli og‘zaki va yozma shakllar haqida teran tahliliy fikrlar bildiradi. Unga ko‘ra, adabiy tilning og‘zaki shakli yozma shaklga qiyoslaganda

¹⁵ Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б.110

¹⁶ Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 70

¹⁷ Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 103-104

qadimiyroq bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalari doston, ertak, latifa, maqol, topishmoq va boshqa janrlarning negizini tashkil etgan. Bu asarlar avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib, uslubiy jihatdan sayqallangan va adabiy nutq mezonlariga moslashgan. Yozma nutqning shakllanishi esa ma’lum madaniy an’analar, barqaror yozuv tizimi va savodxonlik darajasi bilan bog‘liq. Tarixiy nuqtai nazardan u yozma o‘zbek adabiy tilining turkiy yozma til bilan genetik aloqalarini ko‘rsatadi va bu X-XI asrlarga borib taqalishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, yozma adabiy til tahrir, tinish belgilari, orfografiya va stilistika kabi qat’iy me’yorlarga tayanishini, og‘zaki nutqdan farqli ravishda masofa va zamon chegaralarining yo‘qligi, universal muloqot vositasiga aylanishini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, I.Rasulov XX asr boshlariga kelib yozma va og‘zaki adabiy tildagi tafovutlar yo‘qolib, tobora ularning bir-biriga yaqinlashganini, xalq tiliga asoslangan yangi yozma adabiy til shakllanganini o‘ta muhim ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida e’tirof etadi. Olim bu holatni savodxonlik, maktab tizimi, teatr, radio va televideniya orqali adabiy tilning ommalashuvi bilan izohlaydi.

Demak, ushbu asar o‘zbek tilining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, fonetik, grammatik, leksik va stilistik xususiyatlari hamda til normalarini puxta egallashga qaratilgan. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining asosiy vazifasi talabalarni o‘zbek adabiy tilining kompleks tizimini, uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq jarayonlarni to‘liq anglashlari va ona tilida nutqiy savodxonlikni oshirishga yo‘naltirishdir. Mazkur kitobni o‘qish orqali nafaqat o‘zbek tilining nazariy jihatlarini o‘rganiladi, balki milliy madaniyat, tarix, iqtisodiyot, siyosat, fan va texnika sohalaridagi yutuqlar bilan til o‘rtasidagi uzviy aloqani ham ochib beriladi. Shu sababli, u o‘zbek tilshunosligi va til ta’limi tizimining muhim qismidir. Tilshunos “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining tarkibi quyidagi asosiy bo‘limlardan tashkil topganini aytadi¹⁸:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм: Педагогика институтларининг филология факультети талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

2. Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир

3. Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 98

4. Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир

Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 70

¹⁸ Танланган асарлар: икки жилдлик / Иномжон Расулов; масъул муҳаррир Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. Жилд 2. – Б. 122-123